




# **“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy  
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining  
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



**“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari  
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026.   bet.

**Mas’ul muharrir:**  
**Shuhrat Sirojiddinov**  
filologiya fanlari doktori, akademik

**Tahrir hay’ati:**

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;  
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;  
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;  
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;  
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;  
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

|    |                                                                                                                           |            |
|----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
|    | Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari                                                                |            |
| 15 | <b>Sadoqat RAJABOVA,</b><br>Ishtixonda yashovchi etnik arablar                                                            | <b>246</b> |
| 16 | <b>Umarjon QODIROV,</b><br>Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan                                  | <b>249</b> |
| 17 | <b>Gulchexra AHATOVA,</b><br>Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili                                 | <b>253</b> |
| 18 | <b>Hayotxon SOTIMOVA,</b><br>Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi | <b>260</b> |
| 19 | <b>Ramazon ORTIQOV,</b><br>“Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini                         | <b>264</b> |

### 3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

|    |                                                                                                                                                                             |            |
|----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| 1  | <b>Hamidulla DADABOYEV,</b><br>XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470         | <b>271</b> |
| 2  | <b>Nishonboy HUSANOV,</b><br>“Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648                   | 276        |
| 3  | <b>Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA</b><br>Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi                                                 | 281        |
| 5  | <b>Muhayyo HAKIMOVA,</b><br>Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287                                            | 284        |
| 6  | <b>Nilufar ABDURAXMONOVA,</b><br><b>Nasima ABDULLAYEVA,</b><br>Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723 | 292        |
| 7  | <b>Zamira DJURABAYEVA,</b><br>Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar                                                                                     | 297        |
| 8  | <b>Muyassar XOLOVA,</b><br>Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi                                                                                            | 300        |
| 9  | <b>Anvarbek TURDIALIYEV,</b><br>Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari                                                            | 304        |
| 10 | <b>Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV</b><br>Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)                                           | 313        |
| 11 | <b>Feruza AMINOVA,</b><br>Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi                                                        | 316        |
| 12 | <b>Oynisa XOJIYEVA,</b><br>O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati                                                  | 320        |
| 13 | <b>Dildora AMIROVA,</b><br>“Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi                                                                     | 325        |
| 14 | <b>Kamola NOSIROVA,</b><br>Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region                                                                      | 328        |

## FITONIMLARNING DIALEKTAL TABIATI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

### SOME CONSIDERATIONS ON THE DIALECTAL NATURE OF PHYTONYMS

**Zamira DJURABAYEVA,**

*ADU dotsenti,*

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CIUJ2654

**Annotation:** *This article examines the names of trees and plants that play an important role in ecolinguistics and their dialectal features. The appearance of phytonyms in dialects is analyzed.*

**Key words:** *language, Uzbek language, ecology, nature, ecolinguistics, flora, fauna, plant names, dialect, dialectal word.*

Bugungi global dunyoda tabiatni asrab-avaylash masalasi kun tartibiga qat'iy qo'yilmoqda. Jumladan, o'simliklar olamini saqlab qolish hamma joyda hayotiy masalaga aylangan [Nazarov: 2002, 12-13].

Ta'kidlash joizki, Respublikamiz florasi rang-barang bo'lib, o'simliklarning miqdori 4500tani tashkil etadi. E'tiborlisi, ularning nomini anglatuvchi aksariyat atamalar shevalarimizda faol qo'llanadigan so'zlardan iborat. Afsuski, mazkur nomlar bilan atalgan o'simliklar va ular bilan birga nomlar asta-sekin yo'qolib bormoqda. 1991-yili O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitob"iga ularlarning 163 tasi kiritilgan edi. Keyingi sakkiz yil ichida ularning soni 301tani tashkil etdi. Bu tashvishli holat, albatta. Sababi kamyob, yo'qolib borayotgan o'simliklar bilan birgalikda ularning nomlari ham iste'moldan butunlay chiqib ketmoqda. Shu bois, ekologik ahamiyatga ega bo'lgan daraxt va o'simlik nomlarining xususiyatlarini tadqiq etish, ularni yosh avlodga o'rgatish nafaqat ekologiya fanining, balki zamonaviy tilshunoslikning, jumladan, shevashunoslikning ham muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, o'simliklar nomi ostida muayyan hududga, aniqrog'i, shevalarimizga oid noyob so'zlar yashirilib yotgan bo'ladi.

Masalan, J.Kengboev "Ovchining so'nggi ovi" hikoyasida *xapri* – *avruk* o'simligi haqida eslaydi:

*"Ana, ovchi qordan tozalagan yerda o'tlar qoldig'i ko'rinib turibdi. Ie, manavi xapri degan o'simlik xashagi-ku. Tog'liklar uni avruk ham deydi. Odamlar avrukning damlamasidan qo'tir va boshqa teri kasalliklarini davolashda foydalanadi. Agar uning o'tini suvga solib cho'milsa, badanga xush bo'y beradi. Terini mayin qilib, yaxshilaydi.* [Kengboev: 2018, 1-34].

*Jizzax viloyatining Baxmal shevasida kovul o'simligini jayrabodring deb atalishi ma'lum.*

*"Kovul mevasini jayralar sevib iste'mol qilinganligi uchun yurtimiz aholisi uni «jayrabodring» deb ham atashadi. Qadimda Forishda yashovchi mahalliy aholi kovul mevasi va gulidan «kabarbo» deb nomlangan sho'rva tayyorlaganlar", – deb yozadi Sh.Sharofiy [Sharofiy: 2012, 4].*

Vodiyda *chirmoviq* (zarpechak), *shukri* (ravoch) kabi dialektal xarakterga ega bo'lgan fitonimlar nomi uchraydi.

“Sariq g'altak ipga o'xshash narsaning g'o'za tanasi bo'ylab chirmashib olganini ko'rarkan:

– Bu nima, otaxon? – so'radi.

– Bumi? Tekinxo'r **chirmovuq**, yana bir nomi **zarpechak**. Ertalabdan beri shu marazni terish bilan ovoraman. O'simlikning qonini so'radi bu rasvo! Shunaqa tez o'sadiki, agar terayotganingizda ignaning uchidayi yerga tushib qolsa bormi, bir haftaning o'zidayoq butun paykalni egallaydi-qo'yadi”. (Tojiboyeva: 2013, 46)

Bunday farq mashhur ma'rifatparvar Abdulhamid Cho'lpon nigohidan ham chetda qolmagan.: “O'sh va Andijon uyezdlariga ko'klam faslida **rivoch (shukri)** yetishtirib beradurg'on “Shukri tog'i” ko'm-ko'k ko'karib o'ng biqinimizda turadur”, – deb yozib qoldirgan edi u “O'shga sayohat” deb nomlangan xotiralarida *shukri* (ravoch) haqida. [Cho'lpon: 2016, 170].

Yoki quyidagi matnga e'tibor beraylik:

“Esimda, bolalik yillarimda Qo'ytosh tog' etaklarida qir-adirlar yastanib yotar edi. Biz bolalar **gulbarra** terishga chiqardik. O'shanda yuzlab o'quvchilarning har biri **bir tutam-bir tutam gulbarra** kovlab olar va nodir **gullarni piyozi** bilan birga suvga qo'yib tomosha qilardik.

Bola ekanmiz, ko'p narsaga aqlimiz yetmagan ekan. O'qituvchilarimiz ham tabiat quchog'ida o'zimizni qanday tutishimiz kerakligi haqida saboq berishmagan ekanlar. Biz sevgan gullarimizning yo'qolib ketishiga o'zimiz sababchi bo'lgan ekanmiz, buni endi anglab yetdim.

Hech kimga sir emaski, har yili shu asnoda tabiatni vahshiyona talash, hatto qir-adirlarni o'zboshimchalik bilan buzish holatlari uzluksiz davom etib kelmoqda. Hozir ham tabiatni asrashda ahvol o'zgargani yo'q. Ayniqsa, bahor chog'ida **lolaqizg'aldoqlar, lolalar, binafshalar, qoqi o't (momaqaymoq) gullari** juda ko'plab nobud qilinadi. **Ravochlarni** tag-tomiri bilan olish, **kiyik o't, ziravorlar, kovullarga** shafqatsizlarcha qiron keltirish odat tusiga kirib qolgan”. [Nishonov: 2008, 46-47].

Matnda qo'llangan **gulbarra, qoqi o't (momaqaymo), ravoch, kovul kabi nomlar dialektal ma'noga ega.**

O'zbek tilida bu kabi nomlar behisob. Qora archa, o'rik archa, savr archa, qoraqand, pufanak, ayiq nok, zag'ozak, tubulg'u kabi daraxt nomlari; behetmak, normushk, uchqat, pushti sirach, oq parpi (Talas parpisi), sug'ur o't, omonqora, anzur piyoz, tulkiqyruq, tuyaqorin, oq jusan, eshakmiya, shirinmiya, devpechak, qizil kandir, sachratqi, itburun, ko'k sutlama, choyo't, quyonsuyak, sanchiqo't, kovrak, savrinjon, bo'znoch, ermon, qarovin shirachi singari o'simlik nomlari ostida ham muayyan hududlarga istiqomat qilayotgan xalqimizning ona tabiatga bo'lgan munosabati, ekologik bilimlari, ekologik madaniyati va ekologik ongi yashirinib yotibdi. Afsuski, tabiatga bo'lgan salbiy munosabatimiz tufayli dialektal ma'noga ega ayrim o'simlik nomlarini boy berib qo'yyapmiz. Bunga yashil gulli shirachni olishimiz mumkin. 1926- yili Zominda oxirgi marta yashil gulli shirach nomi qayd etilgan.

“**Mayin tukli** qandim, Paleskiy qandimi, mantey qandimi (juzg'unlar) kabi butalar **kamyob, endem** turlar bo'lib, faqatgina Qizilqumda, nihoyatda kichik maydonlardagina

tarqalgan. Bilmadim, bu **sassiq** kovrakning ishqibozi kim? Eshitishimcha, shirasidan qandaydir **qimmat** dori tayyorlanar emish. [Boynazarov: 2008, 12].

**Kovrak** – shifobaxsh o'simlik. So'nggi yillarda Dehqonobod tumanida shira olish maqsadida **ildizi qirqilayotgani** bois bu noyob o'simlik kamayib ketmoqda. [Hakimov: 2012, 82-83].

Ko'rinib turibdiki, o'simliklar va daraxtlar, ular ostida yashirinib yotgan nomlar, atamalar nafaqat ona tabiatning ko'rki, balki ular ona tilimizning ham bitmas-tuganmas xazinasi, noyob boyligi sanaladi. Ekologiyani tilsiz tasavvur qilish qiyin. Har bir tur, uni o'rab turgan flora va fauna dunyosi ostida minglab so'zlar mavjud. Ularning lisoniy jihatlarini o'rganish orqali insonlar qalbida tabiatga mehr-muhabbat, shafqat tuyg'ularini shakllantirish va takomil toptirish barcha fanlar zimmasidagi dolzarb vazifadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulhamid Cho'lpon. O'shga sayohat/Tanlangan asarlar. – 4 jildlik. 4-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
2. Boynazarov O'. Tabiat – ikkinchi onamiz//Huquq. – 2008. – № 43. – 12-b.
3. Kengboev J. Ovchining so'nggi ovi//Yoshlik, – Toshkent, 2018-yil. 1-son, 1-34 b.
4. Nazarov K.A. Milliy bog'larni muhofaza qilish: huquqiy jihatlar// Ekologiya xabarnomasi. – Toshkent, 2002. – № 1. 12-13 b.
5. Nishonov A. O'simlik dunyosiga qiron keltirmaylik//Ekologiya xabarnomasi. – Toshkent, 2008. №1. 46-47 b.
6. Tojiboeva O. Yolg'izbog'ning o'tgan kunlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. 304 b.
7. Sharofiy Sh. Jayrabodring mo'jizasi//Qishloq hayoti. – Toshkent, 2012-yil 14-avgust.
8. Hakimov P. Kovrak kushandalari//Ishonch. – Toshkent, 2012. – № 82-83. 12-b.

